KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI TURIZM VOSITASIDA MA'NAVIY-AXLOQIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

Ravshanqulova Dilora Ravshanovna
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Pedagogika nazariyasi va tarixi yõnalishi 1- kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarni sayohatga olib chiqish tartibi, sayohatni tashkil etish jarayoni, sayohatchilarga nisbatan ma'sullik tabiatga nisbatan bolalarda mehr muhabbat uyg'otish xususidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘z: maktabgacha ta’im tashkiloti, turizm, ekskursiya, sayohat, turizm turlari, rolli o‘yinlar, ko‘rgazmali va amaliy metodlar, tabiat burchagi, tabiatshunoslik.

Turizm – bu bolalar uchun jismoniy tarbiya shakllaridan biri bo‘lib, u bolalar sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash uchun zaruriy komponent sanaladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida turizmni tashkil qilish oson, arzon, shu bilan birga tabiiy va amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan hamda tarbiyalanuvchilarning jismoniy imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan sport turi sanaladi.

Turizm inson xarakterining jamoaviylik, tartib-intizom, matonat kabi ajoyib fazilatlarini rivojlantiradi, bolalarda irodani mustahkamlaydi, mardlik, mustaqillik, o‘zaro tushunishni rivojlantiradi. Shuningdek, turizm orqali maktabgacha yoshdagi bolada ekologik madaniyat ko‘nikmalari shakllanadi, bu bolalarda tabiiy va ob-havo hodisalari haqidagi bilimlarini kengaytirishga yordam beradi. Bolaning jismoniy tayyorgarligining asosi sifatida muvofiqlashtirish qobiliyatlari va chidamlilik rivojlanadi.

Bolalar turizmi tog‘larga, qir-adirlarga sayr qilishni, muzeylarga, turli shahar va tashkilotlarga borishni va o‘yin-kulgilarni o‘z ichiga oladi.

Maktablarda bog‘ga ekskursiyalar va sayrlarni bolalarning yosh xususiyatlari, sog‘lig‘i va individual ko‘rsatkichlari hisobga olingan holda o‘rta guruhdan boshlash mumkin.

Tabiat qo‘yniga chiqish yoki sayr qilishni rejalashtirayotganda (qir-adirlarga, parkga, ko‘lga) vaqtni tashkil qilish haqida o‘ylash kerak: ochiq havo, sport o‘yinlari va mashqlari, attraksionlar, kam harakatchanlik o‘yinlari, topishmoqlar. Har bir sayr bolalar tomonidan kutilmagan vaziyatlar, qiziqarli uchrashuvlar (o‘rmon odami, gnom, tipratikan, tulki va boshqalar bilan) esda qolishi kerak. Ota-onalar ertak qahramonlari rollarini o‘ynashlari mumkin. Maktablarda bolalar bilan sayohatlarni tashkil etish bo‘yicha rolli o‘yinlar tashkil etish mumkin.

Bolalarda bo‘lajak sayohat haqida quvonchli umid uyg‘otish hamda sayohatning maqsadi haqida ma’lumot berishda quyidagi rolli o‘yinlar orqali tashkil etishi mumkin: “Yurtim shaharlari”, “O‘zbekiston Respublikasi muzeyiga tashrif”, “Tog‘ gullarini asraymiz” kabi. Maktabda turizmni rivojlantirishning asosiy omili sifatida bolalar bilan xavfsizlik choralari, parkda yoki ko‘chalarda o‘zini tutish qoidalari bo‘yicha dastlabki ishlarni tashkil etish lozimdir.

Bolalar sayohat haqidagi taassurotlarini turli rasmlarda ifodalaydilar, ota-onalar farzandlari bilan birgalikda ko‘rgazmalar tashkil qiladilar, fotoalbomlar tuzadilar.

Jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirish ishlari tizimida bolalar turizmi faol dam olishning samarali shakli

sifatida o‘zini namoyon qiladi, bu minimal vaqt bilan salomatlik zahiralarini ko‘paytirishga, kuchini tiklashga, ish faoliyatini tiklashga, bolaning tanasining funksional imkoniyatlarini kengaytirishga imkon beradi.

Sport va jismoniy tarbiya kasalliklarning oldini olish, salomatligini mustahkamlash, insonning yuksak mehnat faoliyatini ta’minlash, ruhiy-emotsional stressning oldini olish, shuningdek, yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni Vatan himoyasiga tayyorlashning eng samarali vositalaridan biridir.

Sayohat bolalarni tabiat bilan tanishtiruvchi faoliyatlardan biridir. U tabiat bilan tanishtirish metodlarining ko‘rgazmali metodiga kiradi. Sayohat vaqtida bola tabiat hodisalarining mavsumiy o‘zgarishlarini tabiiy sharoitda kuzatishi, tabiatning insonning hayot va talablariga muvofiq o‘zgarayotganini hamda atrofimizdagi jonli va jonsiz tabiatda yuz berayotgan hodisa va jarayonlar to‘g‘risida bilimlar to‘plashga imkon beradi.

Sayohat faoliyatlarining afzalligi yana shundaki, unda bolalar o‘simlik va hayvonlarni ular yashaydigan muhitda ko‘rish, hamda tabiatda mavjud bo‘lgan o‘zaro aloqalar haqida dastlabki dunyoqarash, tasavvurlarini, olamni materialistik tushunishni shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Tarbiyachi rahbarligida o‘rmon, dala, daryo va ko‘l qirg‘oqlariga uyushtirilgan sayohat bolalarning diqqatini jalb qiladi, tabiat burchagida olib boriladigan keyingi kuzatishlarga xilma-xil material to‘plashga sharoit yaratadi. Sayohatlarda bolalarda kuzatuvchanlik, tabiatni o‘rganishga qiziqish o‘sadi. Ular narsalarni sinchiklab kuzatish va uning xarakterli xususiyatlarini qayd qilishga odatlanadilar.

Tabiatning go‘zalligi bolalarda estetik hissiyotlarning o‘sishiga yordam beradi. Shu asosda ona tabiatga muhabbat, unga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish shakllanadi.

Sayohatlar mazmuniga ko‘ra shartli tarzda ikki turga bo‘linadi:

- tabiatga uyushtiriladigan sayohat - bog‘, o‘rmon, daryo, o‘tloq, shuningdek, hayvonot bog‘i, botanika bog‘iga (bular turli mavsumda o‘tkaziladi) sayohatlar;
- qishloq xo‘jaligiga uyushtiriladigan sayohat - dala, parrandachilik fabrikasi, bog‘, ekinzor va shu kabilarga kattalarning mehnati bilan tanishish maqsadida uyushtiriladigan sayohatlar.

Sayohat faoliyat turi sifatida o‘rta, katta hamda tayyorlov guruhlarida o‘tkaziladi. Har bir sayohat uchun barcha bolalar egallashlari shart bo‘lgan dastur mazmuni belgilanadi.

SAYOHATLARNI TASHKIL ETISH JARAYONLARI	**Tarbiyachining sayohatga tayyorlanishi**
	Sayohatlarni boshqarish
	Bolalarni sayohatga tayyorlash
	Sayohatdan keyingi ish
	Bolalarning kiyimi

O'qituvchining sayohatga tayyorlanishi. O'qituvchi sayohatni rejalashtirar ekan, sayohat mavzusi hamda maqsadini aniq belgilaydi, sayohat o‘rnini, unga boriladigan qulay (bolalarni charchatmaydigan, ular diqqatini asosiy maqsaddan chalg‘itmaydigan) yo‘lni belgilaydi. Sayohat o‘rnini tanlashda bolalarning jismoniy imkoniyatlarini (piyoda yuriladigan sayohatlar kichkintoylar uchun faqat yaqin masofalargagina uyushtirilishi mumkin), shuningdek mavsumni, yo‘lning xususiyatlarini, ob-havo holatini hisobga olish zarur.

Sayohat uyushtiriladigan joy o'qituvchiga qanchalik tanish bo‘lmasin, u bir-ikki kun oldin o‘sha joyni ko‘rib chiqishi lozim.

Sayohatlarni tashkil etishda obyekt tanlash katta ahamiyatga ega. Tanlangan obyekt yaxshi holatda bo‘lishi kerak, ya’ni o‘simlik so‘limagan, navlari o‘ralmagan, hayvon qo‘lga o‘rgatilgan, sog‘lom, bolalardan cho‘chimaydigan bo‘lishi zarur. Kuzatish tabiat burchagida bo‘lsa, obyekt yaxshi yoritilgan bo‘lishi, unga yaqinlashish qulay bo‘lishi uchun yorug‘lik yon tomondan tushib turishi lozim. Bolalar hayvonlarning harakatini kuzata turib, ovqat berishlari, silashlari, ular bilan o‘ynashlari mumkin. Bunda hayvonlar o‘zlarini erkin tutishlari, bemalol harakat qilishlari zarur. Buning uchun bolalar tabiat burchagida qulay joylashib o‘tirishlari maqsadga muvofiqdir.

Sayohatlarni boshqarish. Sayohatni o‘tkazishdan oldin o'qituvchi uni o‘tkazish usullarini atroflicha o‘ylab ko‘radi va sayohat qiziqarli o‘tishi uchun oldindan she’r, topishmoq, maqollarni tanlab ulardan foydalanadi. O'qituvchi kuzatishni tashkil qila turib, kerakli ma’umotlarni aytishi, kuzatiladigan obyektning muhim xususiyatlarini ajratishi zarur. Bolalarda kuzatishga nisbatan qiziqish uyg‘otish, kuzatilayotgan narsalarni estetik idrok etish uchun tarbiyachi she’rlardan, topishmoqlardan, katta yosh guruhlarda esa badiiy asarlarni o‘qishdan foydalanadi.

Hayvonlarni kuzatishda tarbiyachi izchillikka rioya etib, bolalarning diqqatini «Nima qilyapti?» «Qanday yuryapti?» «Nima yeyapti?» «Qanday yeyapti?» «Tanasi nima bilan qoplangan?» «Oyoqlari qanday — uzunmi yo qisqami?» «Ko‘zlari qanday (shakli, rangi)?» kabi savollar yordamida hayvonlarning xatti-harakatiga qaratadi.

Sayr vazifalariga muvofiq bolalar oldindan ogohlantirilishi, ularda sayrni quvonib kutish hissini hosil qilish, sayr maqsadini quyidagi ko‘tarinkilikda ma’lum qilish lozim:

Masalan: “Yalanglikda o‘ynaymiz, so‘ng cho‘milamiz”, “Yalanglikka jismoniy tarbiya qilgani boramiz”, “Ayiqchalarni olib ketamiz va ular bilan o‘ynaymiz”.

Bolalar sayrga tayyorgarlik ko‘rishda ishtirok etishlari lozim. Ular tarbiyachi bilan birga ashyolarini tanlaydilar, ko‘tarib borish oson bo‘lsin uchun ularni o‘zaro taqsimlab oladilar.

Tabiatshunoslik sayohati. Tabiatshunoslik sayohati kirish suhbati, kollektiv bo‘lib kuzatish, bolalarning individual mustaqil kuzatishlari, tabiatga oid materiallarni to‘plash, bolalarning dam olish vaqtida to‘plagan materiallar bilan o‘ynashi va yakuniy qismlarni o‘z ichiga oladi.

Bolalarni sayohat o‘tkaziladigan joyga olib kelgandan so‘ng tarbiyachi qisqa suhbatda sayohatning maqsadi va vazifalarini eslatadi. Shundan so‘ng ular tabiatdagi narsa va hodisalarni kuzatishga o‘tadilar.

Sayohatning asosiy qismi — jamoaviy kuzatishdir. Bunda faoliyatning asosiy qismi hal qilinadi. Tarbiyachi bolalarga narsa va hodisalarning xarakterli xususiyatlarini anglab olishlariga yordam beradi. Bunga turli usullar (savol va topshiriqlar, she’rlar, tadqiqotchilik harakatlari, o‘yin usullari)ni qo‘llash orqali erishiladi.

Kuzatishda asosiy e’tibor jism va hodisalarni yaxshilab ko‘rishga, ularni qiyoslashga, tabiat hodisalari o‘rtasidagi aloqalarni aniqlashga yordam beradigan savol va topshiriqlarga qaratiladi.

Kuzatish jarayonida hikoya, she’r va topishmoqlarni qo‘llash foydalidir. Sayohat jarayonida tarbiyachi bolalarning bilish faoliyatiga rahbarlik qiladi. Bunda og‘zaki (hikoya, suhbat, tushuntirish) ko‘rgazmali va amaliy metodlardan foydalanadi.

Sayohatdan keyingi ish. Sayohatda olingan bilimlar faoliyatlarda, o‘yinlarda, tabiat burchagida o‘tkaziladigan kuzatishlarda kengaytiriladi va mustahkamlanadi. Sayohat yakunida to‘plangan materiallarni tabiat burchagiga joylashtirish (masalan, o‘simliklarni vazalarga, gul tuvaklarga solish, jonivorlarni akvarium, terrarium, sadaklarga joylashtirish), o‘simlik va hayvonlarni kuzatuv ostiga olish zarur.

Sayohatdan 20 kun o‘tgach, tarqatma material, rasm solish, loy va plastilindan narsalar yasaladi, tabiiy materiallardan foydalanib didaktik o‘yinlar, faoliyatlar o‘tkaziladi. Badiiy adabiyotlar o‘qiladi, bolalarning sayohatdan olgan taassurotlari haqidagi hikoyalari tinglanadi.

Faoliyat yakunida umumlashtiruvchi suhbat o‘tkaziladi.

Tabiatshunoslik sayohatlari ma’lum tizimga muvofiq o‘tkaziladi. Ularni tabiatda bo‘ladigan mavsumiy o‘zgarishlarga qarab ayni bir obyektning o‘ziga yilning turli fasllarida uyushtirish maqsadga muvofiqdir.

Masalan, bahor mavsumida bolalar bilan vazifalarni asta sekin murakkablashtirgan holda istirohat bog‘iga 3 marta sayohat uyushtirish lozim.

Bu sayohatdan maqsad — bolalarni bahorgi o‘zgarishlar bilan tanishtirish, ularni ko‘rish hamda tabiatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning sababini tushunish ko‘nikmalarini o‘stirishdir.

Qishloq xo‘jalik sayohatlarini kattalar mehnatining ayrim turlari bilan tanishtirish maqsadida epizodik tarzda o‘tkazish lozim.

Sayohatni uyushtirish guruhdagi faoliyatni uyushtirishga qaraganda qiyinroqdir, shuning uchun uning muvaffaqiyatli o‘tishi tarbiyachi va bolalarning puxta tayyorlanishlariga bog‘liq bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabda tashkil etiladigan turizm bolalarning tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik, tejamkorlik bilan ish ko‘rishi va zarur bo‘lganda, unga amaliy yordam ko‘rsatishga tayyor turib, boshqalarni ham shunga undaydigan darajada bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi bilan xarakterlanadi.

Tabiat bolalarning tevarak-atrofga kuzatuvchanligini oshiradi, voqea-hodisalarining sodir bo‘lish sabablarini aniqlashga qiziqishlarini kuchaytiradi. Natijada bolalarning idroki, tasavvuri, qobiliyati, topqirligi, mustaqilligi rivoj topadi. Ayniqsa, bolalarga borliqdagi narsahodisalarning yaxlit ko‘rinishida qismlardan, qism ko‘rinishida esa yaxlitlikdan tarkib topishini idrok etishlariga, olam bir butunligini anglab yetishlariga, hayot go‘zalliklaridan ma’naviy zavq olishlariga va shu go‘zallikni qadrlashlariga o‘rgatishda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirzayev Murotjon Ahmadjonovich, Aliyeva Mahbuba To‘ychiyevna. “Turizm asoslari”. T., “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti” 2011yil.
2. Sharipova D., Toirova M., Muxamedova S. “Agar bolam sog‘lom bo‘lsin desangiz” Toshkent “Ilm Ziyo” -2006 yil
3. To‘xtaev A., Xamidov A. «Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish». T., «O‘qituvchi» 1994yil.
4. Usmonxo‘jaev T., Toirova M., Sagdiev X., SHaripov T.. “Kichkintoylarga 200 ta harakatli o‘yinlar”. Toshkent-2003 yil
5. Usmonxo‘jaev T.S., Toirova M.T. “Bolalar bog‘chasida sayrlarni o‘tkazish”. T.: Cho‘lpon.
6. 2008yil
7. Шупляк С.П. Паломничества в системе христианских сенностей западноевропейского средневекового обшества // Вестник БГУ. — 2012.

Электрон ресурслар:

8. https://www. sovremennye_obrazovatelnye_tehnologi. http:// moi-rang. ru/publ/ metodicheskie_materialy/.
9. www.edu.uz.
10. www.uzedu.uz.
11. www.pedagog.uz